

Ingliz Va O'zbek Tilarida "Iltifot" Nutq Aktlari Va Ularning O'Xshash Va Farqli Jihatlarini

Abduxalilova Fozilaxon¹

Annotatsiya: Ushbu maqolada iltifot tushunchasi nima ekanligi, turli davrdagi olimlar tomonidan berilgan izohlar va nutq akti sifatida o'zbek va ingliz madaniyatida farqlanishi va o'xshashliklari tahlil qilinadi. Muallif maqolada ikki madaniyatga xos bo'lgan iltifot nutq aktini ishonchli misollar orqali ochib berishga harakat qilgan.

Kalit so'zlar: iltifot, nutq akti, iltifot javoblari, o'zbek and ingliz madaniyati, iltifot afzalliklari.

Kirish. Iltifot tushunchasi turli xil madaniyatga xos tushuncha bo'lsada har bir madaniyatda o'ziga xos mazmunga ega. Iltifot- bu teng yoki yuqori maqomga ega bo'lgan suhbatdoshlar o'rtasidagi kundalik suhbatlarda tez-tez uchraydigan ijobiy baho ifodasidir. Iltifot suhbatni ochish yoki suhbatdoshlar o'rtasidagi hamjihatlik aloqalarini mustahkamlash orqali suhbatni yumshatish uchun ishlatilishi mumkin. Odamlar ko'pincha shaxsiy ko'rinish (masalan, kiyim-kechak, soch), mulk, mahorat yoki yutuqlar bilan bog'liq fazilatlarini maqtashadi. Ushbu sohada tadqiqotlar olib borgan olimlar iltifotni keltirilgan vaziyatlarda masalan: tabriklarda, minnatdorchiliklarda, uzr so'ralganda, salomlashishlarda qo'llash mumkin deb aytadilar.

"You are such a wonderful writer!"

Misol uchun, ushbu holatda, yozuvchining qobiliyati e'tirof qilinayapti va iltifotni ifodalash uchun, ijobiy bahoga ega bo'lgan *"wonderful"* sifati ishlatiladi.

1. Iltifot nutq akti nima?

Iltifot - bironing jismoniy yoki axloqiy fazilatlariga ijobiy baho yoki hayratni ifodalashni o'z ichiga olgan nutq harakati hisoblanadi. Bu og'zaki muloqot shakli bo'lib, u odatda maqtovg'a sazovor bo'lgan shaxsning ijobiy fazilatlarini maqtash yoki tan olishga qaratilgan. Iltifotlar ijtimoiy muloqotda katta rol o'ynaydi va ko'pincha madaniy va kontekstual omillar bilan shakllanadi.

"France aytganidek *"compliment"* so'zining ildizi italiyancha komplimento so'ziga taqaladi. Iltifot, bir tomondan, majburiyatdan qilingan ish-harakatni bildirsa, boshqa tomondan, chin yurakdan his qilingan mamnuniyatni va qalbning samimiyyatini ifodalaydi. Complimento so'zining ozi ispancha *"complimiento"* so'zidan olingan (bu ham aslida Lotin Komeleredan olingan)². O'n yettinchi asrdan boshlab, *"compliment"* tushunchasi boshqalarga nisbatan takalluf bilan ifodalangan so'z yoki harakatni bildirgan. Iltifot nutq akti to'g'risida turli nuqtai nazardan turli xil izohlar berilgan. "Kohen va Holms Smadida keltirishicha *"iltifotlar"* ni ijtimoiy aloqaga kirishish quroli vazifasida foydalaning. "Bu qo'llab-quvvatlashni ifodalashning eng muvofiq yo'lidir".³

"Taklif etilayotgan tadqiqotning ilmiy yangiligi tadqiqot ob'ekti bilan belgilanadi: interaktiv almashinuvda shaxsning pozitsion o'zgarishlarini belgilovchi iltifot ma'nosi bilan nutq harakatlarining tartibga soluvchi o'ziga xosligi tilshunoslikda alohida e'tibor ob'ekti bo'lmagan. Maqtovnini ifodalovchi nutqiy asarlarning kommunikativ holati aniqlandi, kundalik dialogik muloqot sharoitida ishlaydigan iltifot ma'nosiga ega nutq harakatlarining tipologiyasi, stereotipik rol namoyonlarining kommunikativ

¹O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Xorijiy til va adabiyoti, 2-ingliz fakulteti, 4-bosqich talabasi

² France, P. Politeness and Its Discontents: Problems in French Classical Culture

³ Cohen, R. Problems of Intercultural Communication in Egyptian – American Diplomatic Relations. International Journal of Intercultural Relations, Cambridge: Cambridge University Press.1992



o'ziga xosligi va sharoitlarda nutq xatti-harakatlari tuzildi. iltifotni ifodalash aniqlandi, illokatsion potentsialga ega bo'lgan so'zlashuvchi shaxsning shaxsiy munosabatlarini pragmatik amalga oshirish modeli taklif qilindi. Maqto'v ma'nosi bilan nutq akti ishtirokchilarining kommunikativ xatti-harakatlari shakllarini (stereotipik imtiyozlarni) amalga oshirishning tartibga soluvchi o'ziga xosligi aniqlanadi. Quyidagi qoidalar himoyaga taqdim etiladi:

1. Kompliment murakkab nutqiy akt sifatida so'zlashuvchi sub'ekt tomonidan ekzistensial determinantlar asosida adresatning (qabul qiluvchining) ijobiy sifatlarining u ifodalagan pragmatik ahamiyatini tasdiqlash uchun qo'llaniladigan sodda va murakkab nutqiy harakatlarning maxsus sinfidir. so'zlovchining psixik makonida qabul qiluvchi obrazi bilan uzviy bog'lanib, uning lingvistik ongida belgilab beradi, ularning mohiyati va ijobiy ahamiyati nutq aktida "men – shu yerda – hozir" koordinatalaridir.
2. Har xil turdagi referentlar nutq aktining ekzistensial determinanti sifatida harakat qilishi mumkin "maqto'v", ya'ni. haqiqiy yoki mavjud, va virtual yoki taxmin qilingan, ya'ni. mavjud bo'lmagan tasvir yaratuvchi belgi va xususiyatlar, masalan, "go'zallik", "mehribonlik", "rahm-shafqat", "odoblilik", "fidoyilik", "yordam berishga tayyorlik" va boshqalar. Qabul qiluvchining shaxsiyati, shuningdek uning faoliyati.
3. Iltifotning nutq akti sifatidagi funksional xususiyatlarining tartibga soluvchi xususiyati "Men shu bilan ekzistensial determinantlar asosida X ning ijobiy xossalari va sifatleri mavjudligini tan olaman (tuzataman/holat) va shu orqali, invariant formulani amalga oshirishda namoyon bo'ladi. Mening nutqim bilan X ni ifoda eting, bu xususiyatlarni baholash va qanday sharaf" ni ifodalaydi, bu esa ijro matritsasi bilan rasmiy ravishda bog'liq bo'lib, mazmuni va funksionalligi bo'yicha kanonik ijrochilardan samarali o'zgarish belgisi yo'qligi bilan farq qiladi iltifot bildirish paytidagi sheriklar o'rtasidagi munosabatlar.
4. Konstruktiv ma'noda bu formulaga faqat kanonik rejaning aniq baho birliklari (leksik predikat belgilari ham, ular hosil qiladigan sintaktik tuzilmalar – gaplar yoki mulohazalar)gina emas, balki butun nutq majmualari kiradi.
5. Ingliz tilidagi iltifot nutq aktining invariant formulasini amalga oshirish hech bo'lmaganda tashabbuskorlik (iltifot hosil qiluvchi) qadamdan iborat bo'lgan ko'p bosqichli nutq epizodi sifatida shakllanadigan murakkab interaktiv zanjir shaklida amalga oshiriladi. tashabbuskor va qabul qiluvchining bildirilgan bahoni qabul qilish yoki qabul qilmaslikni bildiruvchi javob (maqto'v-reaktiv) qadami. Muloqotni tashkil etish rejasida suhbatdoshlar o'rtasidagi o'zaro ta'sirning interaktiv zanjiri boshlang'ich, oraliq va yakuniy bosqichlarga bo'linishi mumkin.
6. Iltifot hosil qiluvchi va iltifot-reaktiv harakatlarning (verbal va noverbal tartib) illyuksion gradatsiyasi Ingliz tilidagi KRA ning asosiy pragmatik turlarini aniqlashga yordam beruvchi funksional-semantik asos vazifasini bajaradi: a) majburiy - ixtiyoriy; b) "vokativ"; c) "qiyosiy"; d) og'zaki muloqotni tashkil etish nuqtai nazaridan ochish, qo'llab-quvvatlash va yopish; e) bumerang maqto'vlari.
7. Qabul qiluvchi tomonidan qabul qilingan va rad etilgan, yoki boshqacha aytganda, muvaffaqiyatli va muvaffaqiyatsiz bo'lgan maqto'vlar o'rtasidagi farq KRA tipologiyasida hisobga olinmaydi. Muvaffaqiyatsiz maqto'vlar tipologiyasi tadqiqot maqsadiga kiritilmagan, u maxsus tadqiqotga loyiq deb hisoblanadi " – deydi Elvira Vyacheslavovna. ⁴

2. Iltifotni qabul qilish va javob qaytarish tanlovlari

Undan tashqari, Dilnoza Gofurova iltifotni qabul qiluvchi shaxs 3 xil usulda iltifotga javob berishi mumkinligini aytadi.

"A. Iltifotni qabul qiluvchilar.

⁴ Эльвира М. Комплимент как регулятивный речевой акт, Тверь, 2004



Iltifotga nisbatan iltifotchi hech narsa demasdan suhbatni yakunlashi yoki yangi mavzu haqida suhbatni davom ettirishi mumkin. Ammo suhbatni davom ettirish qiyin kechishi mumkin. Javob tariqasida asosan, 1) "rahmat" , yoki tabassum bilan, maqtovga mos keladigan muqobil javob qaytarish mumkin. Misol uchun, 2) " Men ham ajoyib deb o'ylayman" yokida iltifotni aytgan shaxsga nisbatan 3) " Sizniki ham ajoyib " degan so'zlar bilan ifodalash mumkin.

B. Iltifotdan "qochuvchilar ".

Bu uslubda insonlar iltifotni so'zsiz qabul qilish orqali ozini kamtar tutishni afzal ko'rishadi. Masalan, ko'ylagingiz ajoyib ekan! degan iltifotga nisbatan 1) bu mening do'stimning sovg'asi ; 2) Men buni burchakdagi do'kondan sotib oldim 3) Siz shunday deb o'ylaysizmi? degan jumlar bilan javob qaytarish mumkin.

C. Iltifotni rad qiluvchilar.

Bu strategiyada iltifotni ochiqdan ochiq rad etadilar va quyidagicha javob berishadi.

1) Yo'q, unday emas 2) Notog'ri o'ylayapsiz 3) Menimcha, siz unday deb o'ylamaysiz va hokazo.”⁵

“Bu iltifot strategiyalari turli madaniyatlarda turlicha talqin qilinadi. Ba'zi mamlakatlarda iltifotni rad etishi ijobiy yoki odatiy holatni ifodalasa, bazi xalqlar uchun bu qo'pol korinishi mumkin. Yuqorida keltirilgan turli izohlar hamda tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, nutqiy akt bosqichlari hisoblangan lokutiv, illokutiv va perlokutiv aktlar so'zlovchining nutqini hamda uning mazmunini tinglovchiga yetkazib berishda va uni izohlashda madaniyatning ahamiyati katta va u turli madaniyatlarda turlicha talqin qilinadi” degan qarashni Ostin o'z maqolasida ta'kidlab o'tadi.”⁶

“Maysaning tezisida keltirilishicha, Gerbert ham Manes ,Wolfson (1980) va Xolms (1988) xulosalariga o'xshash xulosalarga keladi. So'z tanlashda jins farqlarini o'rganar ekan, Gerbert (o'sha yerda) ayollar iltifotni kuchaytirishni aniqladi. "Yoqdi" ni tanlashga moyil bo'lgan erkaklarga qaraganda "yaxshi ko'rmoq"ni ko'proq (shuning uchun "Men yoqtiraman (sevaman)" shaklidan foydalanish boshqa so'z birikmalariga qaraganda ko'proq qo'llaniladi, lekin u foydalanishda sezilarli farqlar yo'qligini xabar qildi. Bu natijalar shuni ma'lum qiladiki, ayollar tomonidan qilingan iltifotlar katta ehtimol bilan qabul qilinmaydi, ammo erkaklar tomonidan qilingan iltifotlar, asosan ayollar tomonidan qabul qilinadi.”⁷

“Pomerantz Amerika ingliz tilidagi iltifot javoblarini klassik sifat jihatidan o'rganishda, iltifotni qabul qilish afzal javob deb hisoblasa-da, “maqtov javoblarining katta qismi namunaviy javobdan chetga chiqadi”. Rad etish kabi javoblar odatiy hol bo'lishi mumkin. Ushbu muallif vaziyatni imtiyozlar tizimi bilan birgalikda ishlaydigan uchta cheklash tizimi nuqtai nazaridan tasvirlaydi. Maqtov aytilsa, qabul qiluvchi uni qabul qilish yoki rad etishni tanlashi mumkin. Bu birinchi cheklovdir va u ma'ruzachilarga ikkita qarama-qarshi javob strategiyasini taqdim etadi:

Qabul qilish yoki rad etish. Biroq, iltifotni oluvchi ham iltifotni baholashi ,unga rozi bo'lish yoki qo'shilmaslikni tanlashi mumkin. Ushbu ikkinchi cheklovlar to'plami birinchisiga juda mos keladi, chunki qabul qilish ko'pincha kelishuv asosida amalga oshiriladi, rad etish esa ko'pincha iltifot bilan rad etish orqali erishiladi. Uchinchi cheklov o'z-o'zini maqtashdan qochishdir. Yuqorida aytib o'tilganidek, Pomerantz afzal tanlov iltifotni qabul qilish deb hisoblaydi. Biroq, bu o'z-o'zini maqtashdan qochish istagi bilan ziddir, chunki boshqa ikkita cheklash tizimlaridan biri bilan birgalikda o'z-o'zini maqtashdan qochishning yagona yo'li rad etishdir. Pomerantzning ta'kidlashicha, qabul qilishni ma'qullaydigan imtiyozlar tizimi uchta cheklov bilan birga ishlaydi. Qabul qilishni afzal

⁵ Dilnoza G, Nutqiy aktda madaniyat: Bexabitivlar (iltifot-maqtov) misolida. A collection of scientific articles and theses of the International Scientific and Practical Conference. T.UzMU, 2022

⁶ Остин Дж. Слово как действие /Дж.Остин// Новое в зарубежной лингвистике.-М.: Прогресс, 1986.

⁷ Maysa'a, J. The speech act of compliment : Thereotical view. Journal of Al-Qadisiya University ,2008. Vol 11.



ko‘rish va o‘zini maqtashdan qochish o‘rtasidagi qarama-qarshilikdan kelib chiqadigan muammoni hal qilish uchun bir qator yechimlar mavjud”.⁸

“Britaniya ingliz tilidagi maqtov afzalligi ham o‘rganilgan. Britaniyaliklar asosan iltifotni qobiliyatlarni e‘tirof etish uchun ishlatishgan, amerikaliklar esa tashqi ko‘rinishga koproq nazar tashlashgan. Avstraliya ingliz tilidagi umumiy iltifotlar mahorat, egalik qilish, tashqi ko‘rinish va ko‘nikmalar kombinatsiyasini o‘z ichiga oladi. Yoki iltifotni qabul qilish yokida kamroq darajada uni e‘tirof etish tendentsiyasi mavjud. Avstraliya ingliz tilidagi maqtovga javoblar namunasi avstraliyalik tenglik etosini aks ettiradi, bu esa o‘z navbatida Skandinaviya mamlakatlaridagi Jantelagenga o‘xshash madaniyat tendentsiyasi bo‘lgan "Bo‘y ko‘knori sindromi" (Sharifian, 2005, 2008) natijasi bo‘lishi mumkin. Xolms Yangi Zelandiyada ingliz iltifotlari birdamlik, aloqa yoki o‘zaro yaqinlikni o‘rnatadi, kuchaytiradi deydi. Xolms tomonidan olib borilgan keyingi tadqiqotda gender farqlari iltifotning maqsadi bilan bog‘liq holda paydo bo‘ldi. Qizig‘i shundaki, ayollar uchun iltifot aytish ijtimoiy jihatdan maqbulroq bo‘lsa, erkaklar uchun bu yuzga tahdid soladigan harakat sifatida ko‘riladi (niyat qilingan xabarni yetkazishning ochiq va to‘g‘ridan-to‘g‘ri usuli). Bundan tashqari, muallif, shuningdek, ayollar va erkaklarda iltifotlarning chastotasi, mavzulari va tuzilishi farq qilishini aniqladi. Misol uchun, erkaklarnikiga qaraganda, ayollar boshqa odamning tashqi ko‘rinishiga maqtovlar aytishlari odatiy hol edi. Amerikalik Englis Gerbert va Strayt bilan solishtirganda janubiy afrikalik ingliz tilida so‘zlashuvchilar iltifotlarni qaytarishdan ko‘ra ko‘proq qabul qiladilar, ular o‘zaro ta’sirlar sodir bo‘ladigan turli ijtimoiy tizimlarni ko‘rsatib, iltifotni qabul qilish chastotasidagi yuqoridagi farqlarni tushuntiradilar. Ingliz tilining xilma-xilligi iltifot berish va qabul qilishning xilma-xilligini ko‘rsatadi, bu o‘z navbatida ingliz tilini o‘rganuvchi uchun ko‘plab tanlovlarni nazarda tutadi va shuning uchun o‘rganmoqchi bo‘lgan til bo‘yicha tajriba va umumiy bilim pragmatik ko‘nikma uchun muhimdir”.⁹

3. Ingliz va o‘zbek madaniyatida iltifot nutq aktining o‘xshash va farqli jihatlari

“Sodikovich iltifot nutqida ingliz va o‘zbek etnik jamoalarining milliy-madaniy xususiyatlarini quyidagicha ifodalash mumkin: iltifot obyektlarida; iltifot ko‘rsatuvchi va qabul qiluvchilarida; iltifotni amalga oshirish usullarida; iltifotning til dizayn iltifotga nisbatan va javobda. Maqtov ob’ektlariga ko‘ra tasnifiga kelsak, ingliz va o‘zbek tilida quyidagi iltifot turlari aniqlanganini aytadi:”¹⁰

- odamning tashqi qiyofasini maqtash;

Misol uchun :

Siz xuddiki yomg‘irli kundagi quyosh nurideksiz!

Bu rang sizga juda ham yarashar ekan!

- professionallikni baholovchi yoki ma’lum qobiliyatlarni e‘tirof etish;

Misol uchun :

Qachonki siz "men buni qilishni nazarda tutgandim " desangiz men to‘liq sizga ishonaman!

- umumlashtiruvchi iltifotlar (shaxsni bir butun sifatida tavsiflash);
- ichki, axloqiy fazilatlariga maqtovlar;

Misol uchun :

Sizning tashqi ko‘rinishingiz ham, qalbingiz ham go‘zal!

- intellektual qobiliyatlarni maqtash;

⁸ Placencia, M.E., Lower, A., and Powell, H. Complimenting behaviour on Facebook: Responding to compliments in American English. *Pragmatics and Society*.

⁹Thérèse B. Compliment responses among native and non-native English speakers Evidence of Pragmatic transfer from Swedish into English, 2009

¹⁰ Tursunovich, S. E. Classification of compliments as speech acts and their basic characteristics in Uzbek and English, 2022



Misol uchun :

Sizning yaratuvchanlik qobiliyatingiz cheksizdir!

➤ boshqa maqtovlar (yoshga oid maqtovlar, ism-shariflar, turar joy, uy sharoitlari va boshqalar).

Misol uchun :

Yoshingizga qarmasdan , siz buni uddaladingiz!

Ismingizga jismingiz mos ekan!

“Angliyada insonning axloqiy fazilatlariga maqtovlar kop uchraydi. Iltifotlardan foydalanishda bunday milliy-madaniy farqlarga ta’sir etuvchi asosiy omillar ingliz va o‘zbek tillaridagi odob-axloq qoidalarining turlicha qadriyatlar tizimi va me’yorlari ekanligidadir. Biroq, inglizlar nutqida muloqot, tashqi ko‘rinishdagi iltifotlarga katta e’tibor beriladi. Ushbu turdagi iltifot ingliz madaniyatida ikkinchi o‘rinni egallaydi. Albatta, o‘zbek va ingliz kommunikativ madaniyatida tashqi ko‘rinishga oid iltifotlar asosan norasmiy muloqotda qo‘llaniladi. Ishbilarmonlik muloqotiga kelsak, odamning tashqi ko‘rinishiga oid maqtovlar juda kamdan-kam qo‘llaniladi, lekin ko‘pincha yomon did belgisi sifatida qabul qilinadi. Qat’iy ravishda shuni ta’kidlash mumkinki, iltifot/ maqtovlar nutq aktining ta’rifi alohida nutqiy bayonot sifatida xizmat qiladi. Adresatning shaxsi yoki muloqotning bevosita ishtirokchisi bo‘lmagan uchinchi shaxs to‘g‘risida (ko‘pincha ijobiy va kamroq - psevd-musbat) fikr bildirish kuzatiladi –deydi Erkin Tursunovich ‘zining bir maqolasida.”¹¹

“Ma’lum bir nutqiy vaziyatlarga qarab “Turli tillarda, madaniyatlarda nutq akti turlicha bajariladi” – deydi Yan Huang”. Domnika Dumitreskiy o‘z tadqiqotida turli mamlakatlardagi odamlar uyga kirish taklifiga turlicha munosabatda bo‘lishlarini qayd etadi. Misol uchun, inglizlar odatda uyga taklif qilganda minnatdorchilik bildirishadi. O‘zbeklarda esa taklifga nisbatan ikkinchi tomongayam huddi shunday taklif beriladi”-deydi Dilnoza Gofurova. Masalan:

A: *Biznikiga mehmonga keling!*

B: *Siz ham keling, kutamiz!*”¹²

A: *Bugun ochilib ketibsiz !*

B: *Siz ham chakki emassiz !*

O‘zbek xalqi ko‘pincha iltifotni kamtarlik va qadrlash bilan qabul qiladi. Umumiy javoblar orasida “Rahmat” yoki kamtarlik ifoda etish , masalan, “Bu mening uchun oddiy ish” kabi so‘zlardan foydalanish kuzatiladi. Iltifotlarga javoban shaxsiy yutuqlar yoki fazilatlarni kamtarona qabul qilish madaniy me’yordir.

“Muqaddas Qurambayeva o‘zbek yozuvchilarining rang-tus bildiruvchi sifatlardan foydalanib, badiiy tasvirlar orqali iltifotlardan unumli foydalanganlarini aytib o‘tadi. Misollar:

Oppoq choyshab yopib dala, qir,

Qor qo‘ynida uxlab yotadi,

Poyezd hamon uchib ketadi,

O q qirlarni bosib o‘tadi. .

(Uyg‘un).

Chekib debon tig‘i xunfig‘onni,

Cherpk birla qaro aylab jahonni.

(A. Navoiy).

¹¹ Tursunovich, S. E. Classification of compliments as speech acts and their basic characteristics in Uzbek and English ,2022

¹² Dilnoza G. Nutqiy aktda madaniyat: Bexabitivlar (iltifot-maqtovlar) misolida. A collection of scientific articles and theses of the International Scientific and Practical Conference. T.UzMU, 2022



Qizil gulday xotini qoldi. Voh, voh peshonam, qizil gulday... (Oybek).

Qiz zoti qizil olma, suvda balqib, qalqib kelayotgan qizil olmani ko'rsangiz, cho'kib ketishni unutib, qo'lingizni cho'zasiz unga (Oybek).

Taqsir, bugun sahar Qo'qondan keldik, — javob berdi kattagina, novchadan kelgan, cho'tir kishi (Oybek)"¹³.

“Erkin Tursunovichning maqolasida keltirilishicha Laroshfuko shunday ta'kidlaydiki, umuman olganda, odamlar o'zlarining kutuvlariga qaratilgan iltifot iboralarini eshitish uchun boshqa odamlarni maqtashadi. Agar siz odamning kiyimi yoki tashqi ko'rinishiga maqtov aytsangiz, dunyoning turli burchaklarida bu odat har xil bo'lishi mumkin. Misol uchun, agar erkak ayollarni kiyimi yoki yuz ko'rinishiga qarab maqtasa, bu italyan madaniyatida mamnuniyat bilan qabul qilinishi mumkin, ammo musulmon davlatlarida bu narsadan qat'iy qochish kerak”.¹⁴

“V.V. Leontyev nutq jarayonining har xil tasnifida maqtov, xushomad va

iltifotlarning o'rtasidagi o'xshashlik va katta kategorik farqlarni aniqlash vazifasini qo'yadi. Ushbu tushunchalarni solishtirib, V.V. Leontyev ularning har biri uchun alohida farqlovchi xususiyatlarni ochib beradi va bu tushunchalar bir-biriga to'liq mos kelmasligini ta'kidlaydi, chunki ularning har biri ma'lim bir maqsad asosida qo'llaniladi. Leontyevning ta'rifiga ko'ra iltifot maqtovdan ustun turadi va hurmatni ifodalaydi. “¹⁵

“A.V. Bobenko, ingliz tilida iltifotning asosiy vazifasi bir nechta va ulardan eng ko'p minnatdorlik bildirish niyatida ishlatiladi:

"I didn't want to go without thanking you for *all your kindness to me,*"

"Oh, that's all right."

Xattoki iltifotni salomlashish o'rni ham foydalanish mumkin deyishadi Khamidova, Mahmudova va Fozilovalar. Misol uchun:

"Good evening, *dear Gertrude!* so kind of you to let, me bring my friend, Mrs. Cheveley.

Two such charming women should know each other!"

iltifotni ko'pincha suhbat boshlanishi sifatida ham qo'llash mumkin, masalan:

"How *is the most charming woman in the world?*"

(Missis Allonbi xonim Lut Stutfildni qo'lidan ushlab)

"We are both quite well, thank you, Lord Illingworth."

So'zlovchi iltifotni rag'batlantirish maqsadida ham qo'llashishi mumkin, masalan:

" Well, what do you think? "

" The play's all right. I don't see how it can fail to be a success" He caught something doubtful in her tone.

"What's wrong then? *The part's wonderful. I mean, it's a wonderful part, I know that.* ". "¹⁶

Aslida, iltifot orqali so'zlovchi adresatning ijobiy emotsional holatini jalb qilishni maqsad qiladi. Bo'rttirilgan emotsionallik iltifotga xos bolib, suhbatdoshingizni arzigulik tomonlarining "loyiq bolgan" kichik bo'rttirmasi hisoblanadi. Aynan shu jihatdan, ya'ni noloyiq mubolag'aga ega emasligi bilan iltifot xushomadgo'ylikdan farq qiladi.

¹³ Quramboyeva M. Nemis va O'zbek tillaridagi sifatlarning kommunikativ-kognitiv konseptidagi vazifalari, Journal of new century innovations, 2023

¹⁴ Tursunovich, S. E. Teaching Pragmatics to Uzbek Learners of English. Middle European Scientific Bulletin, 2021

¹⁵ Abuzyarova D., Musabirov R. A compliment in the English and Russian Communicative Cultures: A comparative analysis, 2020

¹⁶ Mahmudova Z., Khamidova K., Fozilova I. Ingliz va o'zbek tillarida komplimentni ifodalovchi vositalar, 2022



“Oila a’zolariga va yaqinlarga qilingan iltifot ingliz muloqot madaniyatining yorqin belgisidir. Ushbu yo’nalishidagi iltifot faqatgina oila a’zolari ,do’stlar va qarindoshlar o’rtasida bo’ladi. Bunday muloqatda suhbatdoshning bir birga nisbatan qanchalar yaqinligini va o’z his tuyg’ularini to’liq ifoda eta olishlarini ko’rishimiz mumkin deydi Fozilova ,Khamidova ,Mahmudovalar o’zlarining maqolalarida. Masalan:

"I was just saying what *a pleasant party* you have asked us to meet. You have a *wonderful power* of selection. It's *quite a gift*." "Dear Caroline, *how kind of you!* I think we all do fit in very nicely together."⁸ Aniq ifoda etilgan ijobiy sifatlar pretty, fine, nice, sweet keng qo’llanilgan, masalan:

"Cecily Gardew? What a very *sweet name!* Something tells me that we are going *to be great friends*. I like you already more than I can say. My first impressions of people are never wrong."

"How *nice of you* to like me so much after we have known each other such a comparatively short time. Pray sit down."

Kuchaytiruvchi ravish ishlatilgan: much, extremely, masalan:

"I'm afraid it's *very flattering* – I’m not so pretty as that (showing photograph) "You are much prettier. But haven't you got one of yourself with your little boy?"

Ingliz odamlar nutqida yoshga, ziynatlarga, insonlarning kiyimiga qaratilgan iltifotlar kam qo’llaniladi. Ana shu komplimentlarga misollar keltiramiz:

1)"And Gt... Gt a little over thirty." "Dear, you look weeks *younger* than that."

Ko’p hollarda iltifot - bu tanqidni yumshatishning eng muqobil yo’li, masalan:

" Do you know the promoter says we played nine minutes longer tonight, they laughed so much."

"Seven curtain calls. I thought the public were going on all night." Well, you’ve only got to blame yourself, darling. There’s no one in the world who could have given the performance you gave tonight.

Ushbu ma'lumotlarga asosanib, tadqiqotchi iltifotni ingliz tilida ko’p funksional xususiyatga ega deb ishonadi. Aslida iltifotning asosiy funktsiyasi, o’zaro muloqot qilayotgan shaxslar o’rtasidagi do’stona munosabatlarni o’rnatish va qo’llab-quvvatlashdir.¹⁷

“A.V. Kolegaevaning so’zlariga ko’ra, kompliment muloqotda ajralmas qismi bo’lib, ko’pincha ma’ruzachining ijobiy holatlariga: sevgi, hayrat, hurmat, g’urur va hokazolarni aks ettiradi. Tadqiqotchi komplimentning quyidagi turlarini aniqlaydi va buni ingliz so’zlashuv nutqida yaqqol ko’rishimiz mumkin:

1) yo’q odamga qaratilgan iltifot. Quyidagi berilgan gapda qo’shiqchining chiroyli ovozi kompliment sifatida qayd etilgan:

" His name" said aunt Kate" was Parkiston. I heard him when he was ever put into a man’s throat."

“Strange”, said Mr. Bartell D’Arcy. “I never even heard of him.”

“Yes, yes, Miss Morkan is right,” said Mr. Browne. “I remember hearing of old Parkiston, but he’s too far back for me.”

“*A beautiful, pure, sweet, mellow English tenor,*” said Aunt Kate with enthusiasm.

2) tasniflovchi iltifotda o’zgalar so’zi bilan tilga olinadi. Bu yerda qizning biznes qobiliyati uchun iltifot qilinadi:

"You’ll have to help me to find something really nice to put it its place." “Mary has a *wonderful eye*, did you know that, Bob? She *ought to go into business with me*."

¹⁷ Mahmudova Z., Khamidova K., Fozilova I. Ingliz va o’zbek tillarida komplimentni ifodalovchi vositalar,2022



R.V. Serebryakova aytishicha ingliz muloqot madaniyatida odamning ichki axloqiy xususiyatlariga bo'lgan komplimentlar eng yuqori o'rinda turadi deb aytadi. Avvalambor, komplimentlar o'zining mehr-oqibat, saxiylik, halollik, kamtarlik, jasorat, dindorlikligi bilan ajralib turadi. Masalan:

1)"Dear Sally, what I like about you is your beautiful honesty."¹⁸

Agar biz ingliz madaniyati haqida gapiradigan bo'lsak, muloqot insonning ichki, axloqiy fazilatlariga bo'lgan iltifotlarga tayanadi, ular umumiy qayd kuzatilgan iltifotning 18 foizini tashkil qiladi. Bundan keying o'rinni esa odamning tashqi ko'rinishi egallagan va qobiliyatni yoki muayyan kasbni baholovchi komplimentlar 14%, atigi 2% ziynatlarga qaratilgan, xonadonga, uy sharoitiga va jihozlariga qaratilgan iltifotlar 3% ni tashkil qilar ekan deb aytadilar Mahmudova, Khamidova va Fozilovalar."

O'zbek adabiyotlariga ham nazar solsak, iltifotning bir necha na'munalariga guvoh bo'lamiz. Misol uchun:

"og'ir tabiatlik, ulug' gavalik, ko'rkam va oq yuzlik, kelishgan, qora ko'zliq, mutanosib qora qoshli va endigina murti sabz urgan bir yigit"¹⁹ tasviri ya'ni A.Qodiriyning "O'tkan kunlar" asaridagi Otabekning ichki dunyosi va tashqi korinishiga qaratilgan iltifot na'munasini ko'rishimiz mumkin.

"T.Malikning "Alvido, bolalik" asaridagi ushbu parchada bolaning qobiliyatiga nisbatan qo'llanilgan komplimentni ko'rishimiz mumkin. "Bir ayol qo'shnisiga aytayapdi:

"- Maydonchada o'ynayotgan bolalar orasida Boltavoyingizni ko'rdim. *Naq generalning o'zi-ya!* Hammaga buyruq beradi: "Sen u yoqqa o't, sen chiqib tur..." Bola bechoralar ham indamay quloq solishadi.

- Mening Boltavoyim-a? mening bolam mo'min qobil. Uyda churq degan ovozi chiqmaydi. Birovga buyruq beradiganlardanmas u."²⁰

Keyingi misolda esa qaynota keliniga nisbatan iltifotni qo'llaydi. "– "Bizning Marg'ilonda ham shunday kelinimiz bor ekan-ku, biz bilmay yurg'an ekammiz-da, - deb tevaragiga qarab kulindi va qo'lini duog'a ochdi. – Bizni shunchalik siylab kelibsizlar, bu yaxshiligingizni bizdan qaytmasa, xudodan qaytsin. Olloh taolo yoshlarga taqabbul duo..."²¹

O'zbek tilida iltifot ko'proq qizlarga nisbatan, ularning chiroyli yuzlari yoki qaddi-qomatini ta'riflashda qo'llaniladi, masalan: "quyuq jinggila kiprak"lari ostidan "timqora ko'zlari" boqib turguvchi, "qop-qora kamon, o'tib ketkan nafis, qiyiq qoshlari chimirilgan-da, nimadir bir narsadan cho'chigan kabi" ko'ringuvchi, "to'lg'an oydek g'uborsiz oq yuz"lik o'n yetti-o'n sakkiz yoshlardagi ..qizi."²²

"- O'qishga kirishda kuchiga sal ishonmay turuvdi..."

Xullas, fe'li sal og'irroq....

- Bu og'irlikni bizga qo'yib beravering. Ukaniz *chidamli yigit*. Hozircha shuning o'zi yetarli. Endi boring."²³

Ushbu gap orqali yigitning irodasi va kuchi e'tirof qilinib, uning ichki axloqiy fazilatlariga qilingan iltifotni ko'rishimiz mumkin.

"Shu kulimsirash bilan yana biroz borgandan keyin bu safar jiddiyroq qilib, dedi:

- Ahliyimiz ham uchiga chiqqan chevar, xudoga shukr. Ojizamiz ham

¹⁸ Колегаева А. Специфика интерактивного единства "Комплимент-реакция" в английском языке: На материале художественных произведений и кинофильмов, 2003

¹⁹ Qodiriy A. O'tgan kunlar. Yangi asr avlodi. - T., 2018. – B. 10.

²⁰ Tohir Malik. Alvido... bolalik. Sharq. –T., 2014. - B. 266.

²¹ Qodiriy A. O'tgan kunlar. Yangi asr avlodi. - T., 2018. – B. 10.

²² Qodiriy A. O'tgan kunlar. Yangi asr avlodi. - T., 2018. – B. 10.

²³ Tohir Malik. Imtihon. – Toshekent, 2015.



do‘ppi tikishga “*farang*” bo‘lib chiqdi!”²⁴

Navbatdagi “*farang*” so‘zi o‘zbek tilidagi “ustasi *farang*” ma‘nosida qo‘llanilib, qahramon ayolining qobiliyat va kasbini maqtab, iltifotning bir ko‘rinishidan unumli foydalangan.

“- O‘lmasxon, bormisiz? Durustroq aytasangizchi!

Saltining yana bir o‘rtog‘i – Qumri uning so‘zini quvvatladi:

- Ha, rost, *shunday yaxshi* ovozingiz bor ekan, sho‘x-sho‘x aytmaysizmi?

Keng dalada qancha cho‘zsangiz, shuncha ketadi varanglab...”²⁵

Bu misolda “*shunday yaxshi*” sifati bilan qizning ovoziga (qobiliyat) nisbatan iltifot qo‘llanilgan.

Endigi keltiriladigan misolda qizning ichki fazilatlariga qarata ishlatilgan. Masalan:

“Hilolaxon, *oyog‘ingiz yengil ekan faqat yutayapmiz* qarang “deb xushomad qilishdan charchamasdi.

Yuqorida keltirilgan misollardan shuni bilishimiz mumkink, insonning tashqi ko‘rinishiga ishlatiladigan iltifotlar o‘zbek muloqot madaniyatida juda keng qo‘llaniladi. Ammo avvalgi iltifot ifodalari hozirgidan biroz farq qilgan. Quyidagi berilgan asar parchasida yangi o‘zbek adabiyotida keltirilgan iltifot ,o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan insonning axloqiy fazilatlariga alohida urg‘u berilishini isbotidir.

“Assalomu alaykum, *katta savdogar!* – dedi u yarim hazil, yarimchin. –

Karvoning omon –eson yetib keldimi, savdo- sotig‘ing yaxshi bo‘layapdimi? – Mo‘min ochiq ko‘ngillik bilan sotuvchining qo‘llarini silkitdi, - Qancha suvlar oqib o‘tdi ko‘rishmaganimizdan beri. Xush ko‘rdik!

- *Mo‘min chaqqon* deb atalgan bu chol *shunday sodda, afandife‘l* edi...

- *Ko‘zi o‘tkir*-da, bizning bolaning! “²⁶

XULOSA

Xulosa qilib shuni, aytishimiz mumkinki ingliz va o‘zbek kommunikativ madaniyati juda boy hisoblanib unda komplimentlar juda ko‘p qo‘llaniladi. Ammo bu ikki madaniyat o‘rtasida ma‘lim farqlar va o‘xshashliklarni kuzatishimiz mumkin (yuqorida tahlil qilinganidek).Bu biz yuqorida keltirilgan misollarda yaqqol ko‘zga tashlanib turibdi. Shunday qilib, o‘zbek tilida muloqot insonning ichki, axloqiy fazilatlariga bo‘lgan komplimentlarga asoslanadi, ular barcha qayd etilgan komplimentning 22 foizini tashkil qiladi.

Ulardan bir oz kam foizi bilan odamning tashqi ko‘rinishi o‘rin egallagan 20 foiz, va qobiliyatni yoki muayyan kasbni baholovchi komplimentlar 15% Kamdan-kam hollarda ziynatlarga qaratilgan 4%, xonadonga va uy sharoitiga qaratilgan iltifotlar 2% ni tashkil qilar ekan.

Ikki madaniyat o‘rtasidagi o‘xshashlik shundan iboratki, inglizlar va o‘zbeklarning har ikkalasi ham axloqiy fazilatlarini boshqa xislatlardan ko‘ra koproq e‘tirof etishar ekan. Lekin o‘zbek madaniyati iltifotni kamtarona qabul qilib uni e‘tirof qilishni istmasa, inglizlarda esa iltifotlarni ochiqlik bilan qabul qilib , ularga munosib javob qaytarishni ham afzal ko‘rishar ekan.

Bir narsa aniqki, har bir madaniyat o‘zining xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Ingliz muloqot madaniyatida iltifot juda keng qo‘llaniladi, ya‘ni kundalik hayotda ular bir birlarini iltifotlar bilan xursand qilishni yoqtirishadi.O‘zbek muloqot madaniyatida esa farqli ravishda iltifot kamroq uchraydi. Sababi, bunga aksar hollarda bizning mentalitetimiz va dinimiz yo‘l qo‘ymaydi.

²⁴Cho‘lpon. Kecha va Kunduz. Yangi asr avlodi. T., - 2014.

²⁵Cho‘lpon. Kecha va Kunduz. Yangi asr avlodi. T., - 2014.

²⁶Aytmatov Ch. Oq kema. Adabiyot uchqunlari. – T., 2018.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abuzyarova D, Musabirov R. A compliment in the English and Russian Communicative Cultures: A comparative analysis, 2020.
2. Aytmatov Ch. Oq kema. Adabiyot uchqunlari. – T., 2018.
3. Cho‘lpon. Kecha va Kunduz. Yangi asr avlodi. T., - 2014.
4. France, P. Politeness and Its Discontents: Problems in French Classical Culture. Cambridge: Cambridge University Press, 1992.
5. Gofurova D, Nutqiy aktda madaniyat: Bexabitivlar (iltifot-maqtov) misolida. A collection of scientific articles and theses of the International Scientific and Practical Conference. T. UzMU, 2022.
6. Kamariddinova, M. E. (2024). DEVELOPING COMMUNICATIVE COMPETENCE IN FOREIGN LANGUAGE EDUCATION. *Western European Journal of Linguistics and Education*, 2(4), 66-70.
7. Mahmudova Z, Khamidova K, Fozilova I. Ingliz va o‘zbek tillarida komplimentni ifodalovchi vositalar, 2022.
8. Maysa'a, J. The speech act of compliment: Theoretical view. *Journal of Al-Qadisiya University*, 2008.
9. Placencia, M.E., Lower, A., and Powell, H. Complimenting behaviour on Facebook: Responding to compliments in American English. *Pragmatics and Society*.
10. Qodiriy A. O‘tgan kunlar. Yangi asr avlodi. - T., 2018. – B. 10.
11. Quramboyeva M. Nemis va O‘zbek tillaridagi sifatlarning kommunikativ-kognitiv konseptidagi vazifalari, *Journal of new century innovations*, 2023.
12. Shakhnoza, I., Zamira, S., & Asqar, O. (2024). IMPROVING LISTENING SKILLS OF ELEMENTARY SCHOOL STUDENTS THROUGH MUSIC AND SONGS. *Western European Journal of Linguistics and Education*, 2(4), 61-65.
13. Sitara, O. (2024). IMPROVE ENGLISH VOCABULARY WITH THE HELP OF DOING CROSSWORD PUZZLES FOR A1 LEVEL STUDENTS (ELEMENTARY). *Western European Journal of Linguistics and Education*, 2(4), 45-51.
14. Thérèse B. Compliment responses among native and non-native English speakers Evidence of Pragmatic transfer from Swedish into English, 2009.
15. Tohir Malik. Alvido... bolalik. Sharq. – T., 2014. - B. 266.
16. Tursunovich, S. E. Teaching Pragmatics to Uzbek Learners of English. *Middle European Scientific Bulletin*, 2021.
17. Колегаева А. Специфика интерактивного единства “Комплимент-реакция” в английском языке: на материале художественных произведений и кинофильмов, 2003.
18. Остин Дж. Слово как действие /Дж.Остин// Новое в зарубежной лингвистике. – М.: Прогресс, 1986.
19. Эльвира М. Комплимент как регулятивный речевой акт, Тверь, 2004.

